ARP Academic research publisher

UniScience Journal

JGRS

HAMROH

JOURNALS & BOOKS ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

06.07.2026

O‘ZBEKISTON ILM-FANINING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: NAZARIYADAN AMALIYOTGACHA



Konferensiya dasturiy chiqishlarsiz, faqat ilmiy maqolalar to‘plami shaklida tashkil etiladi!

www.academscience.com

HURMATLI PROFESSOR-O‘QITUVCHILAR, ILMIY TADQIQOTCHILAR, MUSTAQIL IZLANUVCHILAR, MAGISTRANTLAR VA TALABALAR!

Sizni O‘zbekiston ilm-fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlarni muhokama qilish, zamonaviy ilmiy yutuqlarni ommalashtirish, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash hamda innovatsion g‘oya va ishlanmalarni keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etishga bag‘ishlangan **“O‘zbekiston ilm-fanining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari: nazariyadan amaliyotgacha”** mavzusidagi **2026-yil 6-iyul** kuni bo‘lib o‘tadigan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etishga taklif etamiz.

Mazkur konferensiya aniq va tabiiy fanlar rivojining dolzarb muammolari hamda istiqbolli yo‘nalishlari, mahalliy sanoatni modernizatsiyalash, muhandislik, axborot texnologiyalari va texnologik innovatsiyalar, agrar sektor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ilmiy-amaliy strategiyalari, sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiyalash, zamonaviy tibbiyot va mahalliy farmatsevtika rivoji, geografik tadqiqotlar istiqbollari, koinot texnologiyalari integratsiyasi va geoekologik muammolar, milliy iqtisodiyot barqarorligi hamda huquqiy tizimni isloh qilishning konseptual masalalari, milliy ta’lim tizimidagi islohotlar, pedagogik mahorat, psixologik xizmat va zamonaviy metodika, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar makonda tarixiy xotira, ma’naviy meros va madaniyat masalalariga bag‘ishlangan dolzarb ilmiy izlanishlarni muhokama qilishga qaratilgan.

Tadbir doirasida professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, yosh olimlar, talabalar hamda amaliyotchi mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari taqdim etiladi. Konferensiya fanlararo ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy tajriba almashinuvini kengaytirish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy ilmiy ishlanmalarni ommalashtirish hamda ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konferensiya dasturiy chiqishlarsiz, faqat ilmiy maqolalar to‘plami shaklida tashkil etiladi!

Konferensiya maqsadi

Konferensiyaning asosiy maqsadi O‘zbekiston ilm-fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish, fan, ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash hamda turli fan sohalari vakillari o‘rtasida ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Konferensiya vazifalari



- ilm-fanning dolzarb muammolari va ularning amaliy yechimlarini muhokama qilish;
- fanlararo ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash;
- professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, talabalar hamda yosh olimlarning ilmiy salohiyatini namoyon etish uchun platforma yaratish;
- zamonaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuvlarni ilmiy-amaliy faoliyatga keng joriy etishni rag‘batlantirish;
- ilmiy tadqiqot natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish va ularni amaliyotga tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlash;
- O‘zbekiston ilm-fanining rivojlanish istiqbollari yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga ko‘maklashish.

Konferensiya sho‘balari

01 Aniq va tabiiy fanlar rivojining dolzarb muammolari hamda istiqbolli yo‘nalishlari

02 Milliy sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash: muhandislik, IT va texnologik innovatsiyalar va yechimlar

03 Agrar sektor barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-amaliy asoslari

04 Sog‘liqni saqlash tizimi transformatsiyasi: zamonaviy tibbiyot va farmatsevtika muammolari

05 O‘zbekistonda geografik tadqiqotlar istiqbollari, kosmotexnologiyalar integratsiyasi va geoekologik muammolar

06 Milliy iqtisodiyot barqarorligi va huquqiy tizimni isloh qilishning konseptual masalalari

07 Milliy ta’lim tizimidagi islohotlar: pedagogik mahorat, psixologiya va zamonaviy metodika

08 Ijtimoiy-gumanitar makon yuksalishi: tarixiy xotira, ma’naviy meros va milliylik masalalari

MAQOLA VA TEZISLARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

- maqolalar o‘zbek, rus, ingliz, qozoq, qirg‘iz va turk tillarida qabul qilinadi. Maqola hajmi 5 betdan kam bo‘lmasligi lozim;
- maqola matni tahrir qilingan va tegishli sho‘balarning nomi ko‘rsatilgan holda A4 kattalikdagi qog‘ozda, qatorlar orasi 1,5 interval holda, yuqoridan va pastdan 2,5 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirilib rasmiylashtirilgan maqolalar elektron variantda qabul qilinadi;
- maqola matni sahifalanmagan bo‘lib, uning elektron nusxasi Microsoft Word muharririda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda bo‘lishi lozim;
- maqolaning nomi bosh harflar bilan yoziladi, bir qator qoldirilib, navbatdagi qatordan muallif (lar)ning ismi, sharifi, tashkilot nomi ko‘rsatiladi, shuningdek yozishmalar uchun ma’sul shaxsning electron pochta manzili (e- mail). Maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi (Adabiyotlar ro‘yxati GOST uslubida). Muallif (lar) maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uchun to‘liq javobgardirlar;
- fayl nomi, muallif familiyasi va tashkilot nomi (Masalan, muallif O‘zbekiston Milliy universitetidan bo‘lsa “R.Toshmamatov O‘zMU,” nomi bilan) nomlanishi lozim;
- annotatsiya va kalit so‘zlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida yozilishi shart

Konfrensiya materiallari elektron shaklda **Academic Research Publisher** saytida va **Academic Science Publishing** telegram kanalida joylashtiriladi va maqola mualliflariga **2026-yil 9-iyul** sanasida QR kod joylashtirilgan sertifikatlar yuboriladi. Konferensiya doirasida maqola va tezislarni elektron to‘plamga kiritish, tahririy-texnik tayyorlash hamda mualliflar uchun QR-kodli sertifikatlarni rasmiylashtirish bilan bog‘liq xizmatlar uchun to‘lov **70 000 so‘m** etib belgilangan. Mazkur to‘lov summasining **1 foizi** konferensiyaning ijtimoiy mas’uliyat tashabbusi doirasida xayriya maqsadlariga yo‘naltirilib, gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalar hamda tug‘ma yurak xastaliklari bilan tug‘ilgan bolalarning davolanishi, sog‘lomlashtirish va reabilitatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Konferensiya an’anaviy tarzda o‘tkazilmaydi, ilmiy maqolalar to‘plami shaklida amalga oshiriladi. Barcha maqolalar rasmiy to‘plam ko‘rinishida e’lon qilinadi.

Maqolalar qabul qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumot 1 ish kuni ichida mualliflarga yetkaziladi.

Materiallarni qabul qilish muddati: 2026-yil 5-iyulgacha

Konferensiya kuni: 2026-yil 6-iyul

Natijalar chiqishi sanasi: 2026-yil 9-iyul

Maqolalarni va tezislarni elektron pochta va Telegram manzili orqali yuborishingiz mumkin:

academicsciencepublishing@gmail.com

https://t.me/academic_s_p

Maqola va tezislari qabul qilingan istirokchilarga hamkorimiz **Hamroh books** nashriyotidan xarid uchun **20 foizlik chegirma vaucheri** taqdim etiladi.

Tashkiliy qo‘mita konferensiya yo‘nalishiga mos kelmagan va yuqorida keltirilgan talablarga javob bermagan materiallarni chop etmaslik huquqiga ega.

E-mail

Telegram

Maqolani rasmiylashtirish uchun namuna

BERUNIY TUMANI HUDUDIDA RELYEFNING QIYALIGI VA EKSPOZITSIYASINI GIS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAHLIL QILISH

Kengesova Zumrad Asilbek qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti
e-mail:zumradkengesova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Beruniy tumani relyefining asosiy morfometrik ko‘rsatkichlari bo‘lgan nishablik .....
Kalit so‘zlar: nishablik, ekspozitsiya, relyef tahlili, GIS, Beruniy tumani.....
Аннотация. В статье проведён анализ основных морфометрических показателей рельефа Берунийского района ….
Ключевые слова: уклон, экспозиция, анализ рельефа, …..
Abstract. Terrain morphometric parameters play an important role in controlling natural processes and land-use suitability.....
Keywords: slope, aspect, terrain analysis, GIS, Beruniy District.....

Kirish. Amudaryo daryosining quyi oqimida joylashgan Beruniy tumani o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoitlari bilan ajralib turadi …

Asosiy qism. Tadqiqot Beruniy tumani uchun tuzilgan raqamli relyef modeli (DEM) asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalaridan foydalanildi …

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burrough P.A., McDonnell R.A. Principles of Geographical Information Systems. Oxford: Oxford University Press, 2015. 432 p.
2. Iskandarov E.. Hayot falsafasi. – Toshkent, Ma’rifat, 2018. – 148 b.

Ro‘yxatga olish qaydnomasi va maqolalarni 2026-yil 5-iyulcha tashkiliy qo‘mitaning elektron manziliga yuborishingizni so‘raymiz.

ISHTIROKCHINI RO‘YXATGA OLISHNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

RO‘YXATGA OLISH QAYDNOMASI

Familiyasi, ism-sharif (to’liq):	
Tug’ilgan sanasi:	
Ish joyi:	
Lavozimi:	
Ilmiy darajasi, unvoni:	
Telefon raqami:	
Elektron pochta:	
Ma’ruza nomi:	
Ilmiy yo’nalishi:	
Sana:	